

BIRINCHI KITOBIM



OLASOYNING
OLMASI

621
G-84

ROHILABONU G'O'CHCHIYeva

661
G-84

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"TJOD" JAMOAT FONDI

ROHILABONU G'O'CHCHIYEVA

QLASOYNING OLMASI

Hikoyalar

- 1647 -



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYIN VAZIRLIKI
TOSHKENT VILOVATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUDI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Nashr uchun mas'ul:

G'ayrat MAJID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinchbosari

Mas'ul muharrir:

Luqmon BO'RIXON

To'plamdan joy olgan hikoyalari xalqonaligi, milliy koloritiga boylig'i bilan ajralib turadi. Mualif qir-adrlar qo'yinda yastayadigan odamlarning o'y-xayollarini, ko'ngil kechinmalarini, orzu-umidlarini sodda, samimiy ifodalaydi. O'quvchida yorug' taassurotlar uyg'otadi.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublikaga yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashriga tavsya qilinib, "Jod" jamoat fonda tomonidan moljvalashtirilgan.

Atoqli adib Sadriddin Aymiy bolalilik xotiralarini eslab o'tarkan, ilk saboq olgan damlarda yuz bergen qiziq bir voqeani quyidagi cha bayon etadi.

"Tili chuchuk bir ustozimiz bor edi. "L" tovushini "N" tarzida ifoda etardi. Saboqning ilk kuni u taxtachaga "Alif" harfini yozib, endigina maktabga chiqqan, hali hech bir harfini tаниmaydigan jujuqlarga qarata: "Mana bu anif", - dedi. Bolalar uning ortidan takrorlashdi: "Anif", "Yo'q, - dedi domla norizo bosh chay-qab, - anif emas, ani-i-if". Bolalar qiy-chuv bilan yana takrorlashdi: "Ani-i-if!" Ustoz yana rad etdi. "Yo'q, anif emas, ani-i-if!" Domlaning asl muddaosidan butkul bexabar shogirdlar yana qiyqirishdi: "Anni-i-if!" Bu hol ko'p bora takrorlandi. Nihoyat, ustoz oziga taajjub bilan tikilib turgan qorako'zlarga horg'in qarab dedi: "Yo'-o'q, sizlar menikini emas, o'zlarining aniflariningni aytinglar".

Yosh, iqtidorli qalamkash Rohilabonu G'o'chchiyevning turkum hikoyalari bilan tanisharkanman, xuddi shu hangoma yodimga tushdi. Nima uchun? Chunki Rohilabonu

ISBN 978-9943-6780-9-5

© R. G'o'chchiyeva, 2020
© "Adabiyot", 2020

O'Z SO'ZINI AYTAYOTGAN

IJODKOR

ham o'z "anif"ni aytishga urinayotgan ijod kor. Bu uning ilk bitiklari danoq ko'zga tashlanib turbidi. Milliy ruhga, xalqona ohanglar ga intilish uning ijodida bosh mezon ekanligi sezildi. Eng muhimi, yosh adiba o'zini ham, so'zni ham qynamaydi: o'zi juda yaxshi biladigan hayot manzaralarini, o'z ko'ngliga yaqin, hamohang kechimnalarni qalamga oladi. Shu boisdan ham bitiklari tabiiy va samimiy. Uning deyarli barcha hikoyalarini da dasht odamlarining qiyofasini ko'ramiz, turmush tarzi bilan tanishamiz, tashvish-qonchlariga sherik bo'lamiz. Ularning faqat-tutumlari o'quvchida zavq-shavq uyg'otadi. Bu kabi xislatlar, ayniqsa, "Olasoyning yaqqol ko'rindi. To'plamdag'i "Yangi yil" hikoyasi ham Rohilabonuning jiddiy izlanishlari samarasidir. Yosh qalamkash unda bolakayning beg'ubor dunyoqarashi, his tuyg'ulari, o'y-xayollari orqali loqaydlik, yolg'on, riyokorlik kabi illatlarni fosh etadi. O'quvchini hayat, jamiyat haqida chuqurraq mulohaza yuritishga undaydi.

Albatta, Rohilabonu G'o'chchiyeva adabi yotimiz bo'sag'asidan endigma oyoq oshi rayotgan, kamtar-kamsuqun yoshlari niki-

dan. Katta adabiyotning katta talablarini juda yaxshi angraydi. Shu boisdan ham ko'proq o'qib-o'rganishga, tinimsiz mashq qilib, mafhoratini oshirib borishga intiladi. Bu borada biz yosh qalamkash qizimizga sabr-u matonat, jo'shqin ilhom tilab qolamiz.

Luqmon BO'RIXON,
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
yozuvchi.*

OMONAT

Boshpi boboning yoshi bir yuz-u beshda deyishadi, shu chimmi, yolg'ommi? Buyam Sho'ro tuzumining befaroasatligi, qog'ozda xuddi shunday, bir yuz-u beshda! Aslida, boboning besh kam yuzga yetishiga ham ancha bor-ov! Lekin boboy hali dadi! O'n yigitning kuchi bor unda! Har kuni hassasini do'qilla-tib tepalikka chiqmasa, bolasi yig'lagan xotinday qilgan ishidan ko'ngli tolmaydi. Mayli, chiqsin, lekin shu, ko'zim o'tmaydi, deb nolliyig'an boboyning ko'zi tepalikka chiqishda pand bermasmikan?

Odamarning gurungida shunday muhokamalar tez-tez qulqqa chalinadi. Boshpi bopotentak, deydi ayrimlar. Nega bunday atashlari menga qorong'i. Ayrimlarning shu gapini avvalroq aytksam ham bo'lardi. Ammo boboning hurmatini qildim-da, nima bo'ganda ham, bir yuz-u beshga kirgan. Axir, u faqat hujjatda-ku, deysizmi? Hujjatda bo'lsa, nima qilibdi. Axir, hujjat – odamdan ustun! Hujjat – qonun! Shunday ekan, hurmatini qilmay o'idimmi?

Harqalay, bu laqab uning fe'-atvoriga mos: kunda-kunora kampirini so'kmasa, nosqovog'ini yo'qtgan noskashdek jazavaga

tushadi. Uyida uning g'azabiga yo'liqmagan idish-tovoq qolmagan – hammasining biron joyi kertik, singan.

Mana, bu tongda ham kampiri ulushini oldi. Bolakayning oyoq kiyimi yirtilgan ekan, he yo'q-be yo'q, boba "tentak"ligini boshlab yubordi. So'kindi, baqir-chaqir qildi.

Bu bola boboning chevarasi, qizining nevarasil.

Odamarning aytishicha, cholning katta xotinidan tug'ilgan o'g'i ancha yillar avval cho'squvarlar safida Qoratikanga ketgan. Bugun o'sha Qoratikan deganları kattakon shaharga aylangan emish.

Tentakning kichik xotininiyam bormi, deysizmi?

Bilmadim. Hartugul, uning uyidagi kampiri, bizning hamsoyaxola kichigi bo'lsa kerak. Bu ayloldan ikki qiz ko'rgan. Haligi bola o'sha qizlarning biriga nevara. Hoynahoy, kichigiga bo'lsa kerak. Bolani kampir yig'lay-yig'lay qiznikidan olib kelgan.

Bola boboy uchun hech kim emas! Yo'q-yo'q, bola – ermak. Cholga ham, kampirga ham birdek ovunchoq.

Ovunchoq ham ikki yildan buyon shuyerda. Uni tepalikka ergashtirib chiqish uchun ham oyog'iga buyum kerak-ku!

Bola chol-u kampir bilan yashayotgan dan beri hech narsaga zoriqjanicha yo'q edi. Faqat shu safar nafaqa kechikyapti-da, bo'limasa, bir emas, ikkita poyabzal olib berdi. Bola Tentaknikidan o'z uyiga, ya'nii busingikiga ketishiyam mumkin. Ammo u uyda ham ota-onasi yo'q-da.

Bolaning ota-onasi qayerda, deysizmi?

Qulog'imga chalingan gap-so'zlarga qara-ganda, Leningrad degan yurtda emish. Shu yerda uy-joy qilamiz, deb jonsarak yurishgan emish. Men hayronman, balo bormi begona mamlakatda. Ustiga-ustak, o'sha Leningradda ham tirikchilik chatoq ekan. Zo'rg'a kun ko'rishar emish. Boshpi bobo, ya'nii ayrimlar aytganday, Tentak bobo ularni ikki oydan beri chaqirayotgan ekan. Chaqirayotganiga men ham guvohman.

Bir kuni amakim qo'l telefonini menga berib: "Tezda Boshbo'l boboning kampiriga olib bor", - dedi.

Ularnikiga yetib borgan chog'im telefon jiringlab qoldi. "Alyo", - dediim telefonni qu-log'imga tutib. U yoqdan kimdir ovoz berdi: "Elbek". Telefonni chol-u kampirning che-varasiga uzatdim. Bola goh otasi, goh onasi bilan gaplashdi. U o'zini xuddi katta odanlardek tutardi. Ovozi ham allanechuk bosiq-vazmin.

Keyin telefon Boshpi boboga tegdi. "Tez-roq qaytinglar, men omonatimni topshiram", - dedi u gap orasida.

Kampir cholga jonholatda imo-ishora qildi: "Voy, uy-joyni topshiraman, deb ayting".

Tentak bobo kampiriga o'shqirdi: "Menga o'rgatma!"

Telefonni kampir olib: "Shu yerga kelib yashanglar, uy-joyni bobong sizlarga xatlab bermoqchi", - deyayotganida allaqachon aloqa uzilib qolgandi.

Shundan beri Boshbo'l bobo tepalikka chiqib yo'l qaraydi. Tepalikda turib bolaning ota-onasini kutayaptimi yo boshqa sabab bormi, uni men bilmayman. Ammo bir nar-sani ko'plardan so'raganman. Keling, balki Siz bilarsiz:

- Bobomning qo'shnisi Boshbo'l bobo tentakmi-yo'qmi?

YANGI YIL

Odilbek derazadan tashqariga boqar ekan, bog'cha opasi ta'riflab bergen "Yangi yil" dan nom-nishon ko'rmadi. Hammasi eski manzara. Hammasiga o'zlarri aybdorday uylar, dov-daraxtlar parishon, ma'yus turibdi.

Bolakay xo'sindi. Axir, u kun sanab, soat sanab zo'rg'a shu lahzalarga yetgandi-yal Turli suratlardan, ertaklar olamidan kashf etgan Qorboboni ko'rish nari tursin, hatto tevarakda qor ham yo'q. Hammayoq qupuqruq, xuddi yozdagidek. Hademay quyosh ham charaqlab chiqib kelsa kerak.

Odilbek kecha tasavvuridagi "Yangi yil" ni oq qog'ozga tushirdi: Qorboboning rasmini chizib, unga chelak kiygizib qo'ydi. Erimmay osmon-u bulutlarni, qor parchalarini tasvirildi. Archa suratini alohida ehtirom bilan bo'yanga "ilib" qo'ydi.

Bolakay derazaga Ayozboboning muzdan "rasm chizishi" ni dadasidan eshitgan edi. Lekin derazada hech qanaqa bo'yoq-tasviri ko'rmagach, ensasi qotib tashqariga chiqdi. Kecha tayyorlab qo'ygan qal'in kiyim-u qo'iqoplарини олгиси ham kelmadi. To'g'ri-da, qor bo'imsa, nima keragi bor ularning?!

"Eh, endi Qorboboni qaydan topaman, uni qanday uchrataman?"

Bu o'ydan bolakayning boshi gangib qoldi: axir, undan ko'p sovg'alar olmoqchi edi. So'raydigan tilaklari ham ko'p. "Qorobo aqli bolalarming tilaklarini bajo keltiradi", - degandi-ku oyisi.

Odilbek oyog'idagi etigiga uzoq tikilib qoldi. Axir, uni kecha o'z qo'llari bilan yog'lagandi-da! Muzlarni g'ijirlatib bosib, oppoq, qalin qor uyumlarini kechib yugurmochi, osmon uzra sochib, yuzini tutmoqchi edi.

Bolakay osmonga tikidi: ha, ana, surbet quyosh yana o'r lab kelyapti. Qani endi, hozir mojiza ro'y berib, hammadan bo'yи o'sib ketsa, ko'm-ko'k osmonga oppoq bulutlarni chizib chiqsal! Keyin ularдан oppoq, momiq qor yog'aversa!

Odilbek umid bilan cheksiz osmonga boqib turar, go'yo hozir Qorbobo chanasida uchib borib bulut chizadigandek hayajon bilan tiki-lar edi.

Oyisi bolakayni chorladi, yuz-qo'llini yuvishiga undadi. U komush tarzda yana uyga kirdi.

Yana odatdagidek, bir xil, zerikarli kun. Na Qorbobo, na tort, na sovg'alar bor.

- Bugun hammamiz shaharga, atrofida Qorbobo yuradigan uzun archaga boramiz!

Oyisining tantanavor aytgan bu so'zlaridan aka-ukalar quwonib ketdi. Irg'ishlab chapak chalisindi.

– Uyy-a-a! Katta alchaga bolamiz, – dedi jajjigina Komilibek.

Odilbek ham ukasining quvonchiga sherik bo'ldi:

– Qorbobolar shahriga boramiz, urral!

Mana yetib kelishdi. Odilbek bu yerda ham qor-qirov yo'qligini ko'rib, yana qovoq-tumshug'ini osib oldi. U qarshisidan kelayotgan qizil kiyimli, oq soqolli Qorboboga umidvor tikildi. Ammo u shundoqqina yonidan beparvo o'tib ketdi. Bolakay battar ma'yus tortdi. Qizg'ananchiq, qo'pol Qorbobo ekan-ku. Sovg'a tugul, salomga alik ham olmadi-ya!

Bolakay qizil kiyimli, oq soqolli Qorbobolarning ko'pini ko'rди. Hatto bittasi bog'chasi yonida har kuni tilanchilik qilib o'tiradigan amakiga juda-juda o'xshar ekan. Afsuski, yo'llida uchragan Qorbobolarning hech biri, bolakay tasavvur qilgandek, "Tila tilaging-ni", deb aymadi. To'g'ri, bittasi sovg'a berdi, ammo pul oldi evaziga! Do'kondagi sotuvchilar ham pul oladi-ku? Bular ham savdogarmi?

Axir, Qorbobo saxiy bo'lishi kerak emasmi? Ular bolalarga shirin orzular, sovg'alar ulashtihi, tilaktarni bajo qiliishi kerak-ku!

Kuylab va hatto raqsga tushayotgan Qorbobolar endi uning ko'ziga yolg'onchi bo'llib ko'rina boshladi. Bolakay tezeroq ketishni xohlardi.

Odilbekka tort ham tatinadi. Baland va betakror qilib bezatilgan archa ham endi uni hayratga solmasdi, qaytaga, zeriktira boshlagandi. Qop ko'tarib yurgan Qorbobolar soxtaligini fosh qila boshladi.

U xarxasha qilishga o'tdi. Uyiga qaytishni juda-juda xohlardi...

Odilbek yana oppoq qog'oz yuzini bo'yay ketdi. Bu safar qog'ozda yalang'och daraxtga osilgan xunuk sovg'alar va tartibsiz bo'yalgan sariqyaproqlar tasvirijonlanar edi. Oq soqolli boshlar yerda yotar, quyosning sarg'ish nurlari go'yo bu Qorbobolarni ayovsiz eritar edi.

Bolakay charchadi. U o'z chizmalaridan o'zi mammun tarzda o'ringa cho'zildi. Ko'p o'tmay shiringina uyquga ketdi.

Odilbek uzoq kutgan yangi yil shunday boshlandi.

OLASOYNING OLMASI

Bugun uyimiz gavjum. Jahon xolan bilan qizi jamola bo'lam mehmonga kelishdi. Xolam bir ertaklar aytadiki, asti qo'yaverasiz. Dos-ton boshlasalar do'mbirada chalingan kuyday eshitiladi.

Enam kula-kula dasturxonga issiq non bilan Olasoyning olmasini keltirdi.

- Endi, ro'zg'or... Olasoyning turshagi, bo-domi tugab, shugina olmasidan qolibdi. Bolalar misli jallobod..

Uzoq-yaqindan so'rashgach, xolam yana dardini doston qilishga tushdi:

- Bir bormagani Ovro'pa qoldi-yov! Bibim, endi shugina qiziminan oq kunga omon jetsa deymen, - xolam uzun yengi bilan ko'z yoshini arta boshladi.

Bo'lam esa ko'zini olmadan uzmay tam-shanib turardi.

- Egachi, ko'p kuyim mang. Nasib, nevara to'yidayam o'yingga tuhashsiz hali...

Yupatgan bo'ldi enam, piyoz achchig'idan-mi yo xolamning dardli gapidan so'ngmi, yoshlangan ko'zlarini qo'l orqasi bilan sidirib.

Singlim bir burchakda burnini tortib, das-turxondag'i olmani ko'zlaydi. Olmani yaxshi

ko'rgani uchun biz opa-akalar unga Olmaxo'r deb ot qo'yib olgamiz. U sekin xolamning pinjiga tiqiladi. Jahon xolam bolaion emasni, dardi qolib, singlimni erkala shiga tushadi:

- Tolli tovning toshini nuratgan jigitga yor bo'lsin, qaymonasi karillab, poyiga inak jig'it-gan kelin bo'lsin, enasiyam to'yida shaharcha ro'mol jamiladigan qiz bo'lsin, katta bo'lsin, xolasiyam to'yida jilik kamirsin!

Singlimning qulog'iga xolamning "ajoyib" erkala shi kirmasdi shu topda. Uning fikri-yodi olmadeda edi. Enamning olayib qarashidan so'ng singlim xolamning quchog'idan sirg'alib tashqariga chiqib ketdi.

Men-da enamga qarashib, ovqatga unnay-miz.

Otam bilan katta akam bo'rdoqini kalla-pocha qilishga tushgan. Qish chillasi emasni, enamning tili bilan aytganda, jo'jabirday bosh "jovg'onsirab" ketganimiz. Otam ham qayinbekalarining ichida Jahon xolamni xush ko'radi. Ishqilib, to'rtta bo'rdoqining sarasi bulturagi to'qlimizni otam bilan kalla-pocha qilishiga "sabab"lar ko'p. Yana bir sababi, opamlar Toshkentdan - o'qishdan ta'tilga kelishgan. Akalarim "katta o'qish"da o'qiydi. O'ziyam bu yil otamning belidagi belbog'i quvvatlandi. Bir emas, uch farzandi o'tgan yili

"katta o'qish" talabasi bo'ldi, bu yil tag'in yana kichik akam ham "katta o'qish"ga kirgan. Omad bo'lsa, shuncha bo'lar-da!

Xullas, mening burnog'i yilgi sevimli qo'zichog'im edi o'sha bo'rdoqi. Qo'yimiz bolasini olmay toza sarson qilgan. Enam qo'zini olib, qo'yni iydirish uchun qo'shiqlar ayt-di, bo'ladi. Irimga ko'ra, kuchukni qo'shib qamadi, natija yo'q. Keyin qo'zichog'imning sho'r peshonasidan silab, so'rg'ichda sut berib katta qildim. O't ta'mini olgach, sut ichmay qo'ydi. Orada tag'in sho'rpeshona qo'zichog'im kasallandi. Hech nima tatimaydi. Mening g'ayratim jo'shib, Olasoyning olmasini qirg'ichdan o'tqazib, avval og'zidan quydim. Keyin olmani to'g'rab bera boshladim. Olmadanmi yo boshqa sabab, harraqay, qo'zichoq oyoqqa turdi. Uginadan shox o'sa boshladi. Dumi yerga sudralgani uchun uni "Beshoyoq" derdim. Men unga endi suzishni o'rgata boshladim. Bora-bora u mening ortimdan qolmas bo'ldi. Tag'in uning bir yomon odati boshiga yetib, bo'yning bo'rdoqiliq zanjiri taqildi. Uning bu odatiga ham men sababchi edim. U qo'zichoqligida olma to'la qop terilgan omborga men bilan ergashib kirardi. Bora-bora eshikni suzib kiradigan odat chiqardi.

- 164 -

Beshoyoqning "o'g'ri"ligi boshiga yetdi! Ayb menda. Unga olma yeyishni men o'rgat-gandim.

Dilimda shu o'ylar bilan tag'in yig'lagim keladi. Ertalab olma qopni terilgan xonada yig'lab ham oldim. Jonivorning dumlari yerlarni surub yurardi! Hayvonda ham mehr bo'lar-kan-da?! Oyoqlari kullikkammasdan burun so'nggi bor beda olib kirdim. Tag'in... enam dan yashirib olma olib keldim! Ugina men tomon o'zini otadi. Ay jonivor, bu siyolovlar kuning bitganidanligini bilsayding! Jonivor-a, jonivor-a, shundoq oyoqlarimga boshtini suy-kalasa bo'ladimi!

Zanjirlardan bo'shatib qo'yvorgilarim keldi! Endi kech.

Tag'in yig'i bo'g'zimni to'ldirib keladi. Dast-turxonidagi olmaga o'qrayib-o'qrayib qarayman. Go'yoki ayb unda!

Xullaski, bir sevinsam, bir yig'lagim keladi. Xolam tag'in rivoyatidan boshlab qoldi:

— Olasoymda xosiyat bor, derdilar ilgarining odamlari. Azaldan u yerda olma pisngan, azaldan suv mo'l bo'lgan. Hech kim bilmaydi, lekin birinchini niholni kim ekkanniniyam. Olasoymda ilgari zamonda g'or bo'lgannish. Shu g'or-

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
UY YA DIRYA MAMLUKATI
TOSHKENT QODAM KO'ULGAN DEB ESHITAUNMA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI
XBOROT RESURS MARKAZI*

– Chin, egachim, chin, otam rahmatliyam birda aytgani bor, deb juradi kuyovingiz. Qaynotam cho'pon odam bo'gan, el ko'rgan-da, – gapga qo'shiladi enam.

– Shunga chinmi-yolg'on, bir rivoyatni eshitardim. O'sha ko'milgan odamni duoyibad ol-gan deyishadi. Shunday bag'ritosh, qattiqqo'l emishki, qahridan buvaz qo'ylar bola tashlar mish. Asli Bahri ko'chmanchiyam so'ray ketsa, shuning avlodidan chiqar-ov. O'sha qattol odamning urug'i bir kechada qayoqlar-dandir kelgan emish ko'chini ko'tarib, shu-shu "bir kechada kelgan ko'chmanchi" urug'i tarqab ketgan. So'g'in shu qattol odam elning molini talabdi, qiribdi. Xalqning qarg'ishini ol-gan-da, ko'kararmidi? G'orga bosh olib ketibdi. U shunday kun kechiribdiki, odamlar yengidan mag'zava ag'darsa ham rahmat aytarlar xiliga kiribdi. Kattakamar bo'lardi bilsang, bach-chaligimizda enam bizni eshakka mingashtirib, qoringa solingan sori moydi xurjunga joy-lab, olib borardi. O'sha kattakamarniyam shu odam toshlarni yo'nib makon qurgan chiqar...

– Egachi, shuncha kamar bor, biroviniyam odam yasagan chiqmas.

– Endi Kattakamarda toshlari uyingdagi shaharcha zinangday ketgan-da.

– Buyam Xudoning karomati.

– Chin... Shu qattol odam kurnardan bir kun xalq uchun yaxshilik qilmoqchi bo'libdi. O'zining bobomeros hassasini nihol ummas cho'ga suqibdi. Bir paytalar shu hassasi bilan urg'an-netgan kishilaridan uzr so'rashga jo'nabdi. Emishki, uning ko'zlaridan hech yosh to'xtamay oqar emish. U suqqan hassasiga bir ko'zini qoldiribdi... – xolan uzoq tin oldi. Biz tinglovchilar mahtal qotdik. Xolam uzoq sukutdan so'ng: – Esingdami, Olasoya borganimizda bir daraxtni mendan so'rab eding, – dedilar xolam enanga, dabdurustdan gapni burib.

– Shu katta olma daraxti u qattonning hassasi emish-da...

Enam ham, men ham va xolanning qar-shisida o'tirgan qizi ham xolamga hayrat bilan boqamiz.

Kelgandan buyon gap qo'shmagan qizi:

– Ena, bu rivoyatingizni awal eshitmagan-dim, – deb qo'ydi.

Xolam o'zini oqlagan bo'ldi.

– Tog'am birda keksalar gurungida aytib edi. Shu o'zimam ishonib-ishonmay ko'raman. Endi qari bilganini pari bilmas, deganlar. Tog'am o'tirik aytmagandir, rahmatli ma'nili gap bo'lmasa, og'iz ochmaydigan odam edi.

– Ha, qandaylar tog'amiz bor edi, jotgan joyi bir tomming to'ri bilan bo'sag'asini ol-

gan, – enam-da xotiralarini varadgay boshla-
di. – Umr o'tarkan-da, egachi, otamiz bo'zlatib
bizdi yosh tashlab ketdi... Enamizam aytmissi-
edilar; shu birinchi turmushida erlari urush-
dan qaytmay, qirq kunlik qizidanam ayrılib,
kuyganida ocharchilik boshlangan kezları
emish. Shu ocharchilikda Olasoyning olmasi
xalqqa dorigannish... Enam rahmatlik bilan
otamizning to'yidan so'ng tatigani shu ol-
madan, deb edilar.

–

Otam rahmatli salobati Qo'ng'irotni bos-
gan odam bo'lganlar. Qamchisi bilan birda
Egamqul olibbosqardi savalagandi. Sotarmish-
da, olmani eldan bekitib.

–

El tikkan mehnati bor. Odamlaram no-
shukr bo'p ketgan, – enam olmani archib
bo'larkan, to'rtga bo'idi.

–

Oling, aylanay, mehmonlarim, tashqa-
rida bo'rdoqi ham bo'g'izlangan, halizamon
kalla-pocha qilib ham bo'lishar.

Bo'lam opamlarga "qarashish" uchun chi-
qib ketdi. Enam shuni kutgan, shekilli, ovozini
pasaytirib, xolamga:

–

Bir niholni ekdiring egachim-ov. Bu
jamolaniyam obormagan eshik-teshingin-
giz qolmadи. Eldan duo oldirib, bitta niholni
o'z qo'li bilan Olasoyga ektrir. Chiqmagan
jondan umid. El o'gil ko'rib, qiz ko'rib eksa,

siz tilab ektiring. Men jag'im timmay shuni
aytaman. El gapiradi deb jurasizma? Beshift
kasallar umid bilan ekkand-a, farzand ti-
lab ekishning aybi yo'q! Ixlos qilsa – xasdan,
cho'pdan!

– Shuytsammikin?

– Shuyting! Minovgina olmani, niyat qildim,
qizginangizga jediring, – deb enam yarmi qi-
zil, yarmi ko'kish olmani xolamga uzatdi.

Xolam cho'ntagiga joylar ekan:

– Qurg'urgina olmani xushlamaydi-da, –
deb qo'ydi.

Mehmonlarimizga ovqatning turi bilan
tortildi. Enam halitdan beri hech nima totma-
ganimmi presh qilib ovqatga unmayarveradi. Men
olma yeb to'yanimni aytaman. Enam qistay-
di:

– Olmadan to'ysang, sengina qanday o'sa-
san? Ol ovqatdan.

Menginaning dardini birov bilmaydi! Ko'z-
ginamning o'ngida Beshoyog'imming boshimi
olovda kuydirishi. Uning ko'zları iltijoli bo-
qardi!

Mengina o'z dardim bilan o'zimni kasalga
solib, qamalib oldim. Nima qil deysiz, bitta
do'stim endi yo'q!
Kechga yaqin xolamning panasiga tiqila-
man. Maqsadim: yangi ertak!

Xolam kulib-kulib "Zumrad va Qimmat"- dan boshlaydi.

- Qo'zichog'i bor ertak! – deyman men.

Tag'in xolam o'ylanib-o'ylanib bisotidagi bor ertaklarini tonggacha to'kib soladi.

Oradan oylar o'tdi.

Men-da vafozizlarcha Beshoyoqni unutdim.

Bahorda ovul birikib chiqadiqan yilboshi- dan endigina qaytgan enam va undan ajralmas singlim bir xabar topib keldi. Ularga-da pochchamiz ergashgan. Oq'izlari qulog'ida:

- Ey, xola, shoshiling, Jamola olma deyapti! Olasoyning olmasini jegisi kepti!

Enam suyunganidan birpas dovdirab, na uyga kirishimi va na mashinaga o'tirishni bilmay qoldi. So'ng o'zini o'nglab olgach:

- Ay, kimsan, oting nimaydi, qizim. Qarichilik Katta ro'molimni olib chiq! Jiyanginanga Olasoyning olmasini o'zim jedirib kelay!

Onam meni eski-tuskilarni olib tushish uchun chordoqqa chiqarib yubordi. U yerda akamlarning "o'ziyurar" mashinasidan tortib, bulturgi daftariqacha topladi. Hamsoyaning mushugi kaptarlarga qirg'in keltingan, shekilli, ko'kmak patlar gilamday yayrab yotardi. Otanning yozuv masalinkasining ustida bir uyun eski qog'ozlar.

Azaldan odat: uy yig'sam, soatlab qog'oz titkilayman. Bolaliginda surat axtarardim, ammo endi nima izlashimni ham bilmayman, xullas, menda ko'ngilga qullik boshlandi.

Bilasizmi, bu qog'ozlarda mening bo'laligim bor edi. Onam tandiriga tiqqan keraksiz qog'ozlarni ham chordoqqa tashirdim. Otam bir zamonalr obuna bo'lgan gazeta va jurnallar ham turi bilan bor.

Bu qog'ozlar yana opalarimning "kundalik"lari ham edi. Ular mening qog'ozbozligimni biliшmaydi, o'зlaricha ko'ngillari to'q - "kundalik kul bo'lgan" deb o'yplashadi. Yana ikkinchi opamning she'rлari birdan chiqib qoladi. U pishiq, daftarin o'choqqa tutantiriq qilmaydi. Ammo-lekin yashirinchcha o'qib yuraman daftarlарini! O'zi eshitmasin-ku-ya, bilaman, uning yoqtirgani bor!

VARRAK

Mana bunisi katta akamizning qo'shni qiz-ga yozgan-u, jo'natilmagan maktablari. Tag'in u qiz qurg'urdan kelgan maktablari ham bo'y ko'rsatib turibdi. Ular ham ikki bolaga ona bo'ladi.

Tag'in katta opamning kiym chizilgan daftarini topaman. Hozir u tikuvcchi!

Kichkina opamizning onanga yo'llagan sog'inch maktublarini topaman. Toshkentda katta o'qishda o'qiyman deb, tayyorlanishga ketgan.

Akamiz ham pismiqqina ekan, yana mu-habbatning saylanna so'zları terilgan mak-tublar! Kichik akamiz sho'xgina ekanmi, faqt do'stlari bilan hazil maktublar yozishibdi.

Yana titkilayman. Onamning "Xotira" daftari sarg'ayibgina chiqadi. Bilaman, qo'shiqlarning barini ko'chirgan. Voldamiz aval boshdan "qo'shiqchi bo'laman" degan. Bunga yolg'iz tog'amiz qarshi chiqqan. "Ech-kidek sakrama, oyog'ingni urib sindiraman!" degan.

Ammo otamga oid hech nima topolmadim. Otam - sirlı odam.

Changdan bo'g'riqib, turmoqchi bo'lganim-da, ko'rib boshim gangidi: buklog'i qog'ozga ko'zim tushdi. Uni olaman: niyoyat-da eski qog'oz, ammo juda tanish.

O'shanda besh-ohti yosh orasida edim. Bahor. Men suygan yomg'irdan so'nggi may-salarning dimog'ni qitiqlaguvchi hidi ufurgan, nafis sabzalar quyosh nurida qo'shni qizning maktubidagi so'zlardek jilvagar edi.

Navro'z keldi. Sayildan so'ng, shomda qaytgan suruvday uy-uyimizga o'rriadik. Bugun Turdimat ko'kaning xonadonida kulmay-digan quyosh kulgan edi. Ha, bugun Ko'kaning qizi shaharcha varrak uchirdi. Suruvdan qol-gan qo'ziday bo'lib yuradigan Kara "suruv"ni ortidan ergashtirib, varragjni ko'z-ko'z qiladi. Makriga onasi lattadan tikib beribdi. Yana kinniki karton, sellofan.

Men esa akamga yalinaman. Toshingni ter, deydi. Opalarim-da o'zi bilan ovora: bugun qaysisi aytishuvda yutgani-yu, topmachada yutqizgani, qaysisinining ovqati shirin-u, tikkan belbog'i mustahkamligi, yana qay birining belbog'ini olgan yigit kurashda yutgani haqidagi to'lib-toshib, shopirib-shopirib, sovunday ko'pitirrib gapirishardi. Men esam onanga boraman. Qo'li-qo'liga tegmay bobom uchun giyohlardan damlama taylorlaydi. Men-da o'tarni ko'rib boshim gangiydi: bog'-bog',

tutam-tutam kiviko't, yowwoyi yalpiz, moy-chechak, elbahosi, bo'yimadaron, ravoch..

Otam bobomning boshida tuni bilan o'tirib chiqadi. Do'xtirlar-da kun bo'yı uyimizdan arimaydi.

Alam qildi!

Onam singlimni qo'llimga tutqazib qo'ygani ming karra azob bo'ldi.

Alamimni singlimdan olaman: chimchilayman, shapatilab-shapatilab qo'yaman. U ham menga qo'shilib arillaydi. Onamning qistovi bilan uni kichik opam oladi.

- Sengina bolaga qaramay, kashta tilkayapsanni sepingga, shoshilma, ol, buni ovozini o'chirib tur, - deydi onam opalarim o'tirgan xonaga qarab: - Ay, g'ajarisi so'tilgur, taqir gilami to'qilib to'yalariga to'shalgur Nili, oshing damini chillallagan qishday oldi-ku. Tagginisiga mog'orlardan ildirib o'tirmay, qarasang-chi! Hoy senimi, Dalli o'ychi! Menda soluv borma, qizlarim "ajoyib xayolparast" - shoirnish! O'g'illarini-ku, uydan topib bo'pman.

Onam hammani askarday oyoqlatdi.

Ikkinci opamiz tag'in she'r yozmoqqa "qamalib" oldi.
Kichik opam meni o'yumuchlab olarkan:
- Yana varrak deb ko'r, qog'ozz berib bo'pman, - dedi.

- Varrak, - boyadan beri ichimga tushgan
ari nomini aytilib yig'layman yana.

Bobom damlamalarini ichishi uchun onam bizni tinchitib turgan bo'ldi.

Osh ag'darilgach, yana qayta dimladi katta opam.

Kenjamiz - singlim bugun bir yosha to'lish arafasida bo'lGANI uchun ikki opam pichir-pichir rejalar tuzadi.

Ikkinchchi opam keldi. Ko'zları yoshangan. Onam hayron:

- Sog'misan?

- She'r yozdim, - deydi opamiz kulimsirab. Onam yoqasiga tuflar ekan:

- Mullani ayttirib senginaniyam bir o'qtirmasammi. Jin chalgan-ov senginani.

- Ona, bu yomg'ir yog'sa ham yig'laydi, nima emish, gullar bizni eshitarmish, - deb ginaladi katta opam.

Onam bo'yinsasini chaqqani uchun opamni chimchilab olar ekan, singichamning uyuga ketganini ko'rib, belagani kirib ketdi. Otam ham bobomning yonidan chiqdi. Men kenja opamning rangli qog'ozlarini olib, bobomning yoniga bordim. Bobom uyg'ozimi, ulayaptimi, sezilmaydi, bir maromda nafas olyapti. Ayyorlikka o'tdim. Eng yaxshi quroq

- ko'z yoshi. Bobom nina tiqilgan qo'llarini boshimga qo'yib:

- Rahishbon, semma? - dedilar ingroq ovozda.

- Bobo, varrak... - deyman-u, bo'g'zindagi haqiqiy yig'ini tuyaman. O'pkam to'igan.

- Ena qizim, jilama, enam! Ber-chi, - deydi rangli qog'ozlarga ishora qilib.

Men qaychini ham tutqazaman. Bobom ninali qo'llari bilan qog'ozni tutdi, chalqancha yotib olgach, bo'sh qo'lli bilan qirqa boshladi.

- Enam, jilamag'in, hech jilama! Ko'zginang nuri o'qishga kerak. Iqboling oyday bo'sin, enam. Emalarim... Momong uzoqda... Sengi-nani momong duo qilib o'stirgandi. Sizlar omon, nimam qoldi yana!

Bobom varrakni juda tez, men anglamas fursatda yasadi-yu, tili menga o'git qilardi. Ko'zlarida men ko'rmanan, ha, awal men ko'rmanan nur bor edi.

- Jipni enangning moshinidan ol. Jip jengil bo'sa, varraging hammanikidan baland uchadi, - dedi, so'ng ohista joyiga yotdi. Uzoq tin olgach: - Peshonangdan o'pay, - dedilar. Men peshonamni tutdim. Bobomning misli paxtaday yumshoq tafti peshonamda uzoqturdi. Men bolaligimga borib, o'zimni tashqa-

riga ottim. So'nggi bor qaraganinda bobom qo'llini silkib qo'ydi va uning yuzida ma'yus bir jilmayish bor edi.

Qog'oz varrakni olib, adirga yugurdim: "Qara, meniki senikidan kam emas! Rangli qog'ozdan, menikini bobom yasagan!.."

Mening varragim eng baland parvoz qildi. U negadir uyimiz tomon "uchib" borardi. Uning ortidan ergashaman. Qog'oz varragim yig'i ko'tarilgan uyimizga adashmay meni boshlab borardi...

Ha, bu varrak juda tanish! Unda men tutib qololmagan bolaligimning xotiralar, o'kinch-u quvonchlari bor.

Bobojon, siz aytganiningizdek, mening varragim doim baland uchdi. Mana bugungacha u bardam. U hozir ham uchadi. Keyin ham...

Chunki u qog'oz... Unda mehiringiz qolib ketgan!

Menda yana afsus bor... O'shanda... o'shanda men sizni tark etmaganimda, balki... qog'oz varrak kabi uzoqlarga "uchib" ketmasmidin-giz, bobojon?!

AKA

Bir gul bilan bog' bo'lmas.
(Oltoy xalq maqoli)

– Varrak! – deya ostonadan yig'lab kirgan o'g'liga behafsala qarab qo'ydi u.

Ich-etini ariday bo'zlatayotgan dard – yo'qsillik uning qaddini egib qo'ygan edi. Otasi oyooqdan qolganiga ancha bo'lgan. Ro'zg'oringdan ortib qolsa, qaniydi, ota tugul, og'angga uyini ko'tarib bersang! Tirikchilik bug'doyzordan o'tgan temiryo'iga o'xshaydi.

Nasibang temiryo'ida bo'lsa, poyezd kelgumi-

cha terib ol! U bekatda to'xtaydi. Yana yangi yo'lovchilar "taqdirdosh" laringni qoldirib ke- taveradi. Ulgursang, unga chiqib ol! Ammo bug'doyzordagi bo'liq-bo'liq boshhoqlar se- ning xayolingni olib qolaveradi.

Otasining ihmagan tovushi uning xayollarini parchalab ketdi. O'kinib qaradi u. Otasi cho'kib qolgan, Sasha o'rismikidek qosh-kiprige oqar- gan edi. Sasha! Bolalikdag'i do'sti edi u. Ichish- ni, chekishni shundan o'rgangan. Bugun shu chekishga-da sariq chaqa topolmayapti. Yana o'kindi. Otasining oyog'ini uqalayotgan ukasi-

ga qarab bir dardi bolaladi: "O'qishini tashlab keldi u! Hali uylanaman deydi... Otam bu ahvol". Ukasi ham dala yigitib bo'lgan-qolgan. Soch- larini orqaga tarash-u, attir hidi ufurgan oq ko'ylaklar qayerda deysiz.

– Varrak! – ming'irladi o'g'ilchasi. – Maniki uchmayapti.

– Uyga qaytsak, boshqasini olib beraman!

– Hammada bor, menda yo'q! – endi bo- lakay yig'lashga tushdi.

– Ma, bor-da, do'kondan boshqasini ol! – pul tutqazdi o'g'ilchasiiga.

Ko'ngliga kelgan o'ydan o'zi uyalib ket- di: "Otam zabonsiz yotibdi. Ukam o'qishimi... Akam... Bolam uchun pul topiladi! Ularga esa sariq chaqam yo'q".

Vijdon azobi kemiradi uni. Ikki yil burun akasi izlab bordi. Salom-aligidan bildiki, aka- ning ahvoli og'ir, pulda muammo si bor. O'zi- da-ku, bor, yo'q emas, ammo uning ham o'z o'mi bor! Aka-ku, tilga olmadi. Ikki kun turib, uyini noz-ne'matga to'ldirdi. Keta kuni yorilib:

– Otam bor deb yo'qlab tur. Seni ular sog'ingan, – dedi.
"Menimi, pulimnimi?" – deya ko'nglidan o'tkazgandi u.

– Sariq chaqani topish uchun uzzukun it- day ishlayman. O'zimdan ortib, ortirib borol- mayman-da, aka. Bu yog'i tirikchilik.

- Sendan umidvor joyimiz yo'q. Mehr-oqibatni deganday...

- Mehr-oqibatni chaqaga olmaydigan zamon. O'zing uchun o'l... - oxirini aytolmadı, aytmadı... Akaning ko'ngliga shundog'am tekkan edi.

- Sariq chaqa de.

Xullasi gap, akaning dilini qattiq og'ritgan ekanmi, u keldi, lekin aka ko'rishishga kelmadı. Dalada ekin-tikin bilan band, deyishdi. U anoyi emas. Akaning ko'ziga qanday qarashni o'layapti u. Diliga tugib kelgan, xalqumiga mushtdek tugilgan gaplarini aya olarmikin?! Ular yosh bola emas... Qaniydi, shundaylar bo'lsa! Yalangoyoq, yamoq ko'yakda, yirtiq shimda kechgan bolaligiga xayolining baliqday bejitol o'ylari olib ketdi.

U yiqilsa, aka turg'izardi. Turkilashsa, borib, ularning hammasini do'pposlardi. Davralarda ori uchun uni yiqitganni ikki bor qayta yiqtardи aka. Otanga yo'ldosh bo'lay, deb o'qishimi tashladи. Ukaga sen o'qi, odam bo'l, dedi. Aka o'zimi o'ylamabdi! Uni o'ylabdi, uni! U-chi?! Ukasiga sen o'qi deb aytoldimi?! Xotini bir yilga ham uyiga sig'dirmadi.. Lekin akasi ga u pul bermayman demadi, aka, avvalo, pul so'ragini ham yo'q! Unda nega xafa? Aytishdi-ku, ekin-tikin... Ish... Yo'q! Aka kelardi!

Urushda bo'lsa ham, uning uchun kelardi. Ni ma shunchalar qattiq og'ritdiykin dilini? Yaxshi muomala qildi, mehmon qildi. Hamma gap xotinida! U aljiragan, ha! Yo'q! Aka xotinlarning gapi uchun past ketmaydi! Unga xotin zotining gapi qush sayrashiday gap: kulib qo'yib ketaveradi. Azaldan shunday, onasining ham gapiga xo'p derdi-yu, pana bo'lib, do'stлari bilan do'pposalhardiyam, chekardiyam, ichardiyam. Unda nima? Sariq chaqa deganimi?! Bu azaliy gap-ku! Yo'q! Aka bu gap uchun ham xafa bo'lmaydi. Uning uchun bu gaplar xashaki bir gap. U davralarda ko'p-ko'p gaplarni eshitgan, ko'rgan. Aka uchun bu yangilik emas.

U endi tajanglasha boshladi. Ota shu ahvolda-yu, aka kelmaydi! Jahli chiqdi uning! U-ku, tirkchilik deb shaharda it kunda yuribdi, akasi shu uyda bo'lib turib otasidan hol so'rasa maso-yal! Agar qishloqda yashaganida o'zi bilardi, o'zi! Otasiga moshin mindirib qo'yimas-midi! Ha, bu nafsdan. Ekin-tikin mo'l bo'ladi, kuzda pullasa, sizniyam tamimaydi! O'zlarini tag'in bechora, soddha ko'rsatishadimi-yey buto'pori odamlar!

O'ylaridan arsi tushgan kadday boshi g'ovlab ketdi. Tag'in shu odamlarni deb ishini qoldrib keldi-yal! Bir haftaga yana. Bir hafta yetti kon. Dan olish bilan hisobdan tashqa-

ri ish kuni – besh kun. Besh kanni soatbaya ko'paytirsak, ya'ni bir kunga ish soati – to'q qiz soat. Demak, besh kunda qirq besh soat-al Oyligining to'rtadan birining puli degani bu! Ha! Shu odamlarni deb vaqtini, pulini yo'qtib o'tiribdi-ya! Uksiyam ishlasin! Uyam ham o'qib, ham ishlab kun kechirgan. Otasi jo'natgan pul sariq chaqa emasdi u mahallar. Erkakmi, ishlasin! Shu odamlarga ichi achib o'tiridi-ya! Xotin zotini tovuqmiyaga deyishadi, lekin shu tovuqmiyalar baloning o'qiniyam biladi! U o'zi aytuvdi-ya, xotining gapiga ko'nish kerak edi. Shu kelib-ketishga ketgan pulga bir haftaligini kechirardi. Eh, attang! O'g'ilchasi varraksiz yig'lab yuribdi-yu, bu kishi ukani, akani o'yaydi! Ota, endi vaqt kelgan bo'lsa, omonatini topshiradi o'zi... Eh, attang!

Ota yana jon og'rig'idan og'ir ihrandi.

Go'yo otasi ham rol o'ynayotgandek tuyul-di unga. U hozir boshqa joyga ketsa, lip etib o'midan turib, uning kelishi oldi yotib ola-di-yu... hammasi takrorlanaveradi...

U zerikdi. Uyga kirib onasi rahmatlining suratini izladi. Teparoqda osig'liq ekan. O'y lab qarasa, uning uyida onasining birortayam surati yo'q ekan! Tashvish bilan bo'llib e'tibor qilmagan ekan-da! Otasi o'tib... Yo'g'-e! Chol tetik! Suratiga halii hojat ham yo'q! Shunchaki,

uning kelishi uchun hammasi uyuşhtirilgan, hal U ketsha, hammasi joyda bo'ladi. Akadan uzr so'rashni endi xayoliga ham keltirmaydi. U atay ikki kun kelmadi. Yalinib borishini xohlayaptimi?! Pishagini pish degani yo'q birov! Xullas, ketadi! Qaror shu – ke-ta-di!!!

U shaxt bilan chiqdi. Shu onda uning ordan kuzatib turgan akani ko'rdi u. Aka xuddi otasiga o'xshab borayotgandek edi go'yo. O'sha eski beqasam to'n – otasinik! Bosh bar-mog'i ko'riniib turgan yirtiq boshmog'i ham tanish! Boshidagi rangi o'chgan do'ppi – bir vaqtlar onasi tikkan o'sha do'ppi. Belbog'i esa bolalgida otasini eshak qilib minib bo'yniga ip qilib soladigan o'sha – shoyi belbog' edi... U qarshisida o'sha sodda bolakayni – akasini ko'rdi! Ko'zları o'sha-o'sha o'tkir boqadi.

U kelib ukani yerdan uzib olib, quvonchidun ko'targancha baqirib yubordi. Boshidagi do'ppi tushib ketdi.

Ulta ko'rdiki, sochlariqa oq oralay boshlab di... Ter, go'ng hidu anqib turgan uvada to'n shu onda unga naqadar yaqin tuyulib ketdi. Ular uzoq-yaqindan so'rashishdi. So'ng aka o'g'lini suruvga jo'natdi. Kechga yaqin qo'y bo'g'izlandi. Birpasda hovli to'y tusini oldi. Ataming o'rnida u bo'lsa qaniydi, shundaylar bo'lsa qaniydi!

CHECHA

Kunda "yangilik" yetkazuvchi checha uyi-dan chiqmaydi. Dardi bedavo.

O'g'il el orasida "boyvachcha" nomini olgan emasmi, uyiga do'xtirlarni keltirib ko'rsatdi, bo'lmasdi. Chechani do'xtirlar "dap-dayov", dedi. Lekin chechamizning rangi qizday qizari boryapti. Yoshlariyam yosharib boryapti. Bodomgul checha ovulda mushuk bolalasa biigichlardan. Madamin olimchaning otasi Sapar so fi tili bilan aytganda, checha - "qush-tovuq". Chechaning "qushtovuq" oyog'i bir kunda to'rt hovlini ko'rmasa, ovulga "yangiliklar" begona.

Ana shu chechamiz yotib qoldi. Yakka-yagona yolg'izi Injiq cho'pon - Inji cho'ponning tayog'idan baraka. El aytdi: tayoq-da xiyo-natni kechirmaydi! Turq-tusidan cho'ponimiz qo'y tugul, qo'zi og'zidan cho'pmas, xas olmaganday. Ovluning otliqdagi "egri"si Mamat yo'ldan urdi desalar, ba'zi birovlar chechayam anoyi emas, oldida shuncha qo'sh tuyoqlar dikrila, tomoqlari bilan cho'ntak-lari taqillaydi-da, deyishdi. Ammo-lekin Inji cho'ponimizning egniga hech ilmas kiyimlari yetim qo'ziga yopilgan teriday illindi. Ichida

egasi yotsirab boradi. Fe'li boladay yuvosh, o'ttizdan oshib shahar tuprog'ini endi yalahshi. Chechaning bardamligida oyog'ining bittasi shaharda edi. Boshga tushgan musibat che-chamizning oyog'ini kalta qildi. Cho'pon o'n besh kunga "erkakchilik" saboqlaridan olib chiqdi. El qo'y-echkisini olib ketdi. Checha rasman ko'rpa-to'shakka o'ramib oldi.

Ko'k tandirida olov qaynaydi. Kun taftidan temirchiday et kuyar bo'ldi. Er yana ro'zg'or tashvishida dalaga ketgan. Chechamiz chechaligini ko'rsatdi. Ovul qo'y-echkisini boqtirishga odam izladi. Injiq cho'ponimiz Injining injqliklari tutib, qo'y boshi falon so'mni qo'yib boqadigan bo'ldi. Qo'li yupqaroqlari tushing desa, checha, ularning qo'y-echkisini boqmaysan, dedi. Kim zo'r - Inji cho'pon. Kim boy - Inji cho'pon. Kim yaxshi - Inji cho'pon. Chechaning yuki yengillashdi. Taka qorniga yog' solib, Qorakamarga tashidi.

Checha yaxshi, aslida. Dalaga chiqqan onaning bolasi shunikkida edi. Ovluning bo-lasi borki, chechaning tarbiyاسini olmagani yo'q. Kelsak, qolimizga qarardi checha. Hovuchimizda qurtmi, qandmi bo'limasa, o'sha kuni kaltakni ko'proq yerdik. Uydan chiqishda xarxasha qilib, hovuch-u cho'ntaklarimizni to'ldirishga harakat qilar edik. O'zi

ellikdan oshsayam, qizzday yuradi. Ovulda bor "poson"ni chechamiz olib kiyadi.

Ko'rasiz endi, har uyda kosa-tovoqning burni yerga ishqalangan bo'ladi. Kelinchaklar orzu-havaslaridan, keksaroqlari yoshlaridan noliy-noliy poson bo'ladi. Shu uchunni yo boshqa sabab, ovulning yozda soyani itga bermas, qishda gapchi xotinlardek sandalchi erkaklari yig'ilib qartaning "boshimini yeydi" ganlar tilida chechamiz – "Gita". O'zi shularning tilidan ovulga yangi gap o'rashdi. Zamona chechaning qo'tida. Checha salla o'rash yoshi-da "modniy" ro'mol o'rashdi. To'y-po'yda ovul ahli ayollari chechaga xushomadda, ammo ich-etini o'y arralaydi: "Karillaydi-ya, qari quşhtovuq! Tovuqday kishi uyida donlaydi o'zi buning. Qollarida qo'sha-qo'sha tila. Eri kunida ko'rmaganini ko'ryapti! Birovning uyini supurib kun ko'rardi!"

Xazonrezgi kuzning rangiday sovuq, barg-lariday to'kilayotgan gaplar ovulni tutdi:

– Alplar ketib, Zamona Ultontozning qo'li-da qoldi.
– Hay, Bodom cho'ri bor-ku, checha-chi, o'sha Bolxin kinnachiga checha bo'yapti ekan, eshitdingalmi?
– Qo'ng'irottdan nomus qochibdi-da, emas...

ONA

*Bisyor bo'lsa agar, bol ham beqad;
Takror aytliganda rangsizdir kalom.*

*Bu yorug' olamda Vatan bittadir;
Bittadir dunyoda – Ona degan nom!*

Abdulla ORIPOV

Meni ko'chganimizdan buyon g'alati bir his timch qo'ymaydi. O'zim-ku, bu xabardan so'ng do'ppinni osmonga otganman, ammo ko'chib bo'lgach, yuragimning bir bo'tagi qolgandek tuyulardi. Onam bilan haftada bir yoki ikki marta telefonlashardim. Bu hisni sog'inchdan billib, kunda-kunora endi onanga qo'ng'iroq qilaman. Eng yomoni, sizni kuzatayotganda onunlig ko'ziga yosh olishi bo'lar ekan! Onam ni sog'inganda faqat ko'z o'ngimda o'sha xayrlashuv va ko'zga yosh olgan Ona siyrati qotib qolarkan. Telefon ortida ham onam yig'layotganini sezaman, garchi har gapidan so'ng ovoz chiqarib kulta ham. Meni sezmasin uchun kulsalar kerak-da, yig'lab turib ham!

Qishki ta'tilda uyga borganimizda onam issiq tundiriga bag'rini berib, non yopar ekan, eng engu tilaklarini, orzularini farzandlariga sam...

tiladi, o'ziga emas! Men ana shunda, ha, ana shu onda ona qalbining naqadar sofigini tu-shundim!

Uyga mehmon keladigan bo'ldi. Onam obdan barchamizga yangi kiyimlarimizni kiyishimizni aytib, yana o'zi ishga umnay ket-di. Besh opa-singil onamga shuncha tush-untermaylik, iltimos qilmaylik, baribir, bir joyda timch o'tira olmas edi. Borib u ishni yo bu ishni qilaverardi. Qarasam, onam eski kiyimida o'choq boshida kuymalanib yuribdi. Shunda onamning egnidagi ko'ylik etagidagi yamoqqa ko'zim tushdi-yu, dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ketdi.

Axir, men uni endi sezdimmi?

Nega e'tiborliroq bo'imagannan? Yetti bolasining to'rtalasini oliv ma'lumotli qilib, nima rohat ko'ribdi onam? Yamoq ko'yakmi?!

Uyga kirib, onamning eng yangi ko'ylagini olib chiqdim. Onamni majburlab yangi ko'ylagini kiygiddim.

Shunda yordam uchun kelgan qo'shi xo-

lam bizni kuzatib turgan ekan.

- Qizim, o'sha yamoq ko'yakni eslab qol! O'qishda yurgamingda shu ko'z o'ngingda tur-sin! Bu sening o'zligingni eslatib tursin! Hoy-tu havasga berilmay, ortingga ham qarab qo'y!

Onang oldidagi burchni unutmagan! Yamoq ko'yakni esdan chiqarma! – dedi qo'shni xola han hazil, ham chin qilib.

Ammo qo'shni xolamning gapi eng chin gap edi.

Onam esa:

– O'choqning dudiga bo'laveradi, deb kiy-din-da. Buning aybiyo'q! Ota-bobomiz, qo'sh-nijon, yamoq bilan o'sgan. Biz ham kiyaksak, nima bo'libdi? Bu yoshlari o'zlaricha madaniyatlimish, madaniyat deganiyam insondan keyin yaralgan! – deb kulib qo'ydi.

Shu kulg'anida his qildim, onamning yuz-lardagi ajlunlari ancha quyuqlashibdi, o'zi ancha kuchrayibdi. Ro'molning tagida ko'ribi, turgan sochlarning avval oqlari sanoqli bo'lsa, endi qora tolalari samoqli qolibdi.

Shu kayollar bilan kumin ham o'tib qo'ydi. Kun tushdian og'ibdi. O'sha g'afati his nima edi? Yana o'ylay boshladim.

Onamga ko'ylik olish maqsadi bilan bozor-la ham o'zimni ovutish uchun bordim. Onam uchun eng oldi ko'yakni xarid qilar ekanman, yana o'sha yamoq ko'ylik voqeasi yodimga lip etib yongan chiroqdek tushdi. Yana beix-tyor ona oldidagi burchimni o'layman: men nima qilsam, ado bo'lar ekan bu burch? Bunga umrimi, vadtim, aqlim yetarmikin? Vatan va

Ona oldidagi burch doimo yuksak maqomda bo'lib kelgan!

Menga tekkan kasal – bozorga borsam, albatta, kitob do'koniga kirmay o'tmayman. Tanish sotuvchidan yangi kitoblarni ko'r-satishini iltimos qilar ekanman, "Alpomish" deb zarhal yozuvda yozilgan qora kitoba ko'zim tushdi-yu.. Men angladim!

G'atati his – bu o'sha eski uydagi yon qo'sh-nimiz bo'lgan Xolida opa edi. U men o'qish-dan qaytish vaqt yo'lda turardi. Uyi yo'l us-tida emasmi, har kuni uni deyarli ko'rardim. Ko'pincha meni uyiga boshlab, issiq ovqa-tidan ilnardi-da.

– Musofirsiz, o'rgilay, onangizni sog'inasiz. O'z uyingizcha bo'imaydi – eng go'zal restoran ovqatiyam. Chunki onalar bergen mehrni manaman degan oshpaz ham farzandiga atama-sa, bera olmaydi! – derdi va yana o'z ishlari bilan ovunib ketaverardi.

Uning ikki o'g'il, ikki qizi bo'lib, kattasi maktab bitiruvchisi, keyingi qizi aytish no-qulay bo'lsa-da, nogiron edi. Keyingi o'g'i birinchi sinfd o'qir va kenja qizi hali maktab yoshiba yetmagan edi. Oila boshlig'ning top-gani bilan tebratib turgan ro'zg'orida kam-u ko'st chiqaverardi. Ikki o'g'il ham boks to'gariga boradi, katta qizini davolatish...

U bir safar iymanib, mendan iltimos qildi:
– Shu katta qizinga bekorchilikdan ko'ra kitob o'qib berib tursam yaxshi bo'larvardi. Tunov kuni bozorga bordim, kitob olay desam, shu ro'zg'orni tashvishi bilan yo'lkira qolbd...

– Ibu yog'ini yutib yubordi, shekilli, to-mog'iga bir to'g'on kelib tiqildi.

Men unga uydan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "O'ttan kunlar", Shukur Xolmirzayevning hikoyalar to'plami singari kitoblarni chiqarib bordim,

– Har kuni u yoki bu kitobni ovoz chiqarib o'qiyotganida uyining yonidan o'tar ekan-man, ich-ichimdan sevinardim. Ona farzandi uchun kitob o'qisa, yaxshi emasni?

– Iltidda oy o'tib ming-ming rahmatlar aytib, kitoblarimni qaytarib berdi.

– Ilti safor o'qishdan kechroq qaytayotgan edim. Xolida opa eshibi oldida turib:

– Sovuq yebisiz, Keling, kirib choy ichasiz,
– deb qoldi.

Lehindada Jon desam-da, ertangi dars uchun tayvorigartlikni o'ylab, uzr va rahmat aytib, uyiga ketdim, suv bahonasida yana Xolida opankiga chiqar ekanman, deraza ortidan tanish, juda tanish ovoz eshitillardi. Qishning uenoq tunarida onam aytilgan "Alpomish"ning

sarguzashtli tasvirlari va Oybarchinga berilgan tavsiflar. Ha, ha, bu ovoz o'sha olisdagi bolaligimda qolgan onamning ovozi edi!

Bilmayman, qancha vaqt shu holatda qotib turdim. Xolida opa chiqib, xayolimdan qutqarmaguncha turaveribman. Suv uchun kelganimni aytib, kranga bordim. U kulib turgan yuzidagi ikki tonchi yoshti artib qo'ydi, chog'i, qizidan yashirish uchun. Ko'z yoshtalarini artish uchun u tashqariga chiqqan edi, aslida. Ona - Osmon ko'zidagi oqib borayotgan bir tomchi qonli ko'z yoshdek quyosh ham og'ib borardi.

Bexosdan Xolida opaning etagidagi yamoqqa ko'zim tushib, yana ko'z o'ngim qorong'i tortdi!

Men unda Onamni ko'rib turardim!
Farzandi uchun butun kitoblarimi yod olgan onamni - Onani ko'rib turardim.

"Alpomish"ni sotib olarkanman, quyosh bilan birga botib borayotgan g'alati hisdan xoli bo'lsh uchun eski uyga, aniqrog'i, Xolida opani yo'qlash uchun qadrdon yo'llardan tik boraverdim.

Xolida opa anche cho'kib qolgan, negadir sochiga oq tushgandek ko'rinaridi menga.

U kulib-kulib qizi operatsiya vaqtini yonida bo'lishini va "Alpomish"dan aytib berishini

ittimos qilganligini, natija yaxshi chiqib, qizi oyoqqa turishini kutayotganligini aytar ekan, Ona o'zini to'xtata olmas, sevinch yoshlari yuzini yuvar edi.

Kuning,yarim tunga og'masdan qaytishim lozimligini aytib, unga ulasganimni uzatdim. U berganimni olarkan:

- Ovora bo'lib nima qilasiz, - dedi-yu, kirob ekanligini sezdi, chog'i, rahmat aytib, moni quchar ekан: - Balki, siz bo'lmaganin g'izdo qizimda umid bo'lmasmidi, - deb qo'ydi ukingina, lekin bu ovoz juda yoqimli edi.

Men onalarning begonasi bo'masligini hisqlidi. Ayniqsa, men uchun musofirlikda baricha Onu jonddek yaqin bo'larkan.

Ona degan nom garchi bitta, ammo Onada-
gi mehr chek-chegarasizdir!

MUNDARIJA

Luqmon Bo'rixon. O'z so'zini aytayotgan ijodkor.....	3
Omonat.....	6
Yangi yil.....	10
Olasoyning olmasi.....	14
Varrak.....	23
Aka.....	30
Checha.....	36
Ona.....	39

OLASOYNING OLMASI

Hikoyalar

Adabiy-badiy nashr
ROHILABONU G'Ο'CHCHIYEVA

UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOVATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
VAXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.512.133-32

KBK: 83.3[50'zb]
G'87

10

G' 87 G'o'chchiyeva, Rohilabonu.

Olasoyning olmasi [matn]: *hikoyalar* / R. Góchchiyeva. – Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 48 b.

Bauly Il'dan H.; R. Ermitov
Sahifalovchi; N. Soatov

Musahih: Sh. Hakimova

10

№ 0129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.
№ (98) 128-30-04.

Basishaa 2012 3030-xvi | a r i v e t a l .

DOS 11

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1 FEBRUVAR 2000

**DAVENT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI**

AZMIR NASHR PRINT™ MCH] bosmaxonasida chop etild 10-11

100ZUV, Iossifovitsh Sianit, 19